Tadbirkorlikda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish masalalari	951
Otaxanov Sardorbek Maxammadali o'g'li	
Tadbirkorlik faoliyati samarasini oshirishda iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari	954
I. M. Kamoliddinov, Sodiqov Maqsudjon Abduolimovich	
Tadbirkorlik subyektlarini soliq mexanizmi orqali rivojlantirish masalalari.....	957
Akbarov Akramjon Ibroximjonovich	
Yashil investitsiya samaradorligini oshirish masalalari.....	961
Ibrohimov Muhammadjon Abdullajanovich	
Yengil sanoat korxonalarini rivojlantirish va eksport imkoniyatlarini oshirish yo'llari	964
K. M. Umarkulov	
"Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyati va uning hissasini oshirish masalalari	968
G. T. Mamajanova	
Kichik biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlashda mahalliy boshqaruv bilan mushtarak jihatlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	972
Ubaydullayev Akmal Tulkinboyevich	
Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari.....	978
Tursunov Abdulla Qoraboshevich	
Институциональные концепции устойчивого развития в рамках стратегического управления экономикой региона.....	982
Сеитова Лейла Пулатовна	
Hududlarda turistik destinatsiyalarni majmuaviy rivojlantirishda raqobatbardoshlik strategiyasini takomillashtirish istiqbollari.....	990
Mirzayev Abdullajon Topilovich	
Современное состояние развитие системы железнодорожного транспорта	994
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна	
Relevance of Benchmarking in Industrial Enterprises.....	997
Uktamjonova Zulayxo Anvarjon qizi	



Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari.....	1002
Tursunov Abdulla Qoraboshevich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat xususiy sheriklik asosida byudjetdan ajratilayotgan mablag'larning holati tahlili.....	1006
Xalilova Sh. G'	
Направления обеспечения конкурентоспособности во внешнеэкономических связях.....	1009
Ахмедов Икром Акрамович	
O'zbekistonda natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish mexanizmini rivojlantirish.....	1023
Primova Nigora Ikrom qizi	
Kichik biznes korxonalarida B2B bozorini tizimli tashkil etishning uslubiy jihatlari.....	1030
Zakirova Gulnoza Qudratovna	
Current Trends in Agrotourism in Uzbekistan: Demand, Needs, and Motives of Agritourists	1034
Iroda Abdieva Gayrat kizi	
Современное состояние достойного труда специалистов транспорта в условиях цифровизации.....	1039
Абдуллаева Нигора Шамсиддиновна	
Обоснование методов оценки совершенствования конкурентоспособности предприятий легкой промышленности	1043
Тухтасинова Мухайё Мирзасултоновна	
Проблемные аспекты трансформации финансовой отчетности бизнеса юридических лиц	1049
Шин Инесса Олеговна	
Cross-Cultural Management is a Separate Field of Science and Discipline.....	1055
Umarova Zulaykho, Rakhmanova Zilola	
Tadbirkorlik subyektlarida xalqaro sifat standartlarini joriy etish tahlili.....	1058
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni	1062
Jo'rayev Ilhomjon Kamolidinovich	
Iqtisodiy inqiroz davrida kredit xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy modellari....	1066
Kurbonov Rustam Radjabovich	
Raqamli transformatsiya konsepsiyalari va uning ahamiyati.....	1071
Abdurahmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning istiqbollari.....	1078
Xalilova Shoxsanam G'ayrat qizi	
"EIZ" hududida soliq va bojxona rejimlari uchun imtiyozlarni tahlil qilish	1083
Xusanov Durbek Nishonovich, Djurayeva Iroda Bahrom qizi	



“EIZ” HUDUDIDA SOLIQ VA BOJXONA REJIMLARI UCHUN IMTIYOZLARNI TAHLIL QILISH

Xusanov Durbek Nishonovich

Iqtisod fanlari doktori, “Renaissance” University,
“Iqtisodiyot” kafedrası mudiri, professor

Djurayeva Iroda Bahrom qizi

Basic doctoral student, Tashkent State University of Economics

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi hududidagi maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari uchun qonunchilikda belgilangan soliq va bojxona imtiyozlari turlari, shakllari o'rganiladi va tahlil etiladi. Maxsus iqtisodiy hudud ishtirokchilarning respublika hududidagi boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlardan farqli ravishda to'laydigan soliq turlari va bojxona yig'imlari yoritiladi. Kelajakda ushbu hududlarni rivojlanishida preferensiyalar va strategiyalarning maqsadi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Maxsus iqtisodiy zona, erkin iqtisodiy zona, soliq imtiyozlari, soliq stavkalari, bojxona rejimi, preferensiya, strategiya.

Abstract: This article examines and analyzes the types and forms of tax and customs benefits established by legislation for the participants of the special economic zone in the territory of the Republic of Uzbekistan. The types of taxes and customs duties that the participants of the special economic zone pay differently from other economic entities in the territory of the republic are highlighted. In the future, the purpose of preferences and strategies in the development of these areas will be studied.

Key words: Special economic zone, free economic zone, tax benefits, tax rates, customs regime, preference, strategy.

Аннотация: В данной статье рассматриваются и анализируются виды и формы налоговых и таможенных льгот, установленных законодательством для участников специальной экономической зоны на территории Республики Узбекистан. Выделены виды налогов и таможенных пошлин, которые участники специальной экономической зоны уплачивают иначе, чем другие хозяйствующие субъекты на территории республики. В дальнейшем будут изучены цели преференций и стратегии развития этих направлений.

Ключевые слова: Особая экономическая зона, свободная экономическая зона, налоговые льготы, налоговые ставки, таможенный режим, преференции, стратегия.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi va EIZ hududida soliq rejimini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining turli farmon va qarorlari bilan birga O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi hisoblanadi. Maxsus iqtisodiy zonalar mamlakat iqtisodiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lganligi sababli rivojlangan mamlakatlar ushbu hududlarni tashkil etishda ko'proq iqtisodiyoti yaxshi rivojlanmagan qoloq hududlarda tashkil etishga e'tibor qaratadi va bir qancha imtiyozlar taqdim etadilar. Iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda esa ushbu hududlar ko'proq xorijiy investitsiyalarni jalb etish va bu bilan qoloq hududlardagi infrastrukturani yaxshilashga e'tibor qaratadilar. Jahon amaliyotida birinchi tashkil etilgan erkin iqtisodiy hududlar asosan erkin savdo hududlari, erkin bojxona hududlari sifatida yuritilgan. Ushbu hududlar xalqaro tovar ayirboshlash va yetkazib berish hech qanday qiyinchiliklarsiz amalga oshishi uchun dengiz portlari yaqinida joriy etilgan.

So'nggi yillarda EIZlar tashkil etish tobora ommalashib bormoqda, chunki ko'plab mamlakatlar tez o'zgarib integratsiyalashib borayotgan jahon iqtisodiyotida iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhimligi katta ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda 147 ta davlatlarda 5400 dan ortiq maxsus iqtisodiy zonalar mavjud bo'lib, bu ko'rsatkich 5 yil avval 4000 ga yaqin bo'lgan¹. Maxsus iqtisodiy zonalar taqdim etilgan imtiyozlar hamma mamlakatlarda turlicha bo'lishi mumkin. Masalan Rossiyada 50 ta maxsus iqtisodiy zonalar² mavjud bo'lib, EIZ hududining rezidentlari bo'lgan kompaniyalar 10 yil davomida

¹ Доклад о мировых инвестициях | ЮНКТАД (unctad.org)

² Особые экономические зоны (economy.gov.ru)



mol-mulk solig'ini, besh yil davomida yer va transport soliqlarini to'lamasliklari mumkin. Foyda solig'i stavkalari ham aynan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilariga ish faoliyatini boshlash davrida kamaytirilgan stavkalarda joriy etilgan.

- Birinchi sakkiz yil uchun soliq stavkasi 2%,
- To'qqizinchi yildan o'n to'rt yilgacha - 7%,
- O'n to'rt yildan keyin - 15,5%.

Mamlakatimizni barqaror iqtisodiy rivojlanishida ham maxsus iqtisodiy zonalarining ahamiyati ortib bormoqda. Xususan, "O'zbekiston-2030" strategiyasida ham aks ettirilgan asosiy g'oyalardan biri bu barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtaqchadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish etib belgilangan³. Jumladan, monopol sohalarni izchil bozor tamoyillariga o'tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish va tadbirkorlarga eng qulay sharoitlar yaratish uchun soliq tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida biznes uchun qo'shilgan qiymat va foyda soliq stavkalari uch yil davomida oshirilmagligini kafolatlash, soliq tizimini to'liq raqamlashtirish, soddalashtirish va barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, rasmiy sektor – nolegal faoliyatdan afzal va manfaatli bo'lishi uchun barcha zarur sharoitlarni ta'minlash borasida maqsadlar belgilab berilgan.

Shuningdek, Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirishda eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish hamda dunyoning 50 ta nufuzli brendlari bilan maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil qilish eng ustuvor vazifalar sifatida belgilangan⁴. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda investitsion jozibadorlikning o'rni katta bo'lib, binobarin xorijiy investitsiyalarning mamlakatga kirib kelish oqimini ta'minlab beruvchi eng asosiy omil bo'lib ximat qiladi. Ushbu maqolada investitsion jozibadorlikning tarkibiga kiruvchi eng muhim indikatorlardan biri bo'lgan maxsus iqtisodiy zonalariga taqdim etilgan soliq va bojxona rejimi imtiyozlari o'rganiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Erkin iqtisodiy hududlar XX asrning muhim tarkibiy o'zgarishlaridan biri bo'lib jahon iqtisodiyotiga kirib keldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, kapital va tovar harakatining erkin ayirboshlanishini ta'minlab beruvchi bunday hududlarning paydo bo'lishi ushbu hududlarda joylashgan mamlakatlarning milliy iqtisodiyotida katta o'rin tutib kelmoqda. Bu borada izlanishlar olib borgan xorijiy olimlardan J.Zhan erkin iqtisodiy hududlar xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, mahalliy kompaniyalarni global qiymat zanjirlariga integratsiyalash, eksportga yo'naltirilgan o'sishni rag'batlantirish va bandlikni ta'minlash uchun investitsion infratuzilma va xizmat ko'rsatuvchi provayder⁵ deya tarifiyladi. T.Avishek fikricha, erkin iqtisodiy zonalar alohida ajratilgan bojsiz anklav bo'lib, savdo operatsiyalari, bojxona va tariflar uchun chet el hududi bo'lib hisoblanadi⁶. I.Shablinskiy bu haqida quyidagicha ta'rif beradi. Erkin iqtisodiy hudud har qanday import qilinadigan tovar odatda bojxona hududidan tashqarida bo'lishi va oddiy bojxona nazorati ostida bo'lmagani kabi qo'llab-quvvatlovchi soliqlar va soliqlarni hisobga oladigan davlat hududining bir qismidir⁷. N.A.Orlova ta'kidlashicha maxsus iqtisodiy zonani "biznes, jumladan, soliq, bojxona, ma'muriy va fuqarolik huquqi imtiyozlari va kafolatlariga ega bo'lgan maxsus huquqiy tartib o'rnatiladigan mamlakatning nisbatan xavfsiz holatga ega qismidir" deya fikr bildiradi⁸.

Yana bir olim A.Kuznetsov: "Erkin iqtisodiy hududdagi xorijiy tovarlar hech qanday bojxona to'lovlarisiz saqlanishi, sotilishi yoki xarid qilinishi mumkin bo'lgan hudud", deya tarifiyladi⁹.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham erkin iqtisodiy hududlardagi imtiyozli tartib va ma'muriy boshqaruv sohasiga ko'proq e'tibor qaratilgan holda qator ta'riflar berilgan. M.A.Raimjonovanning talqinicha "Mamlakat hududida maxsus iqtisodiy rejim va ma'muriy boshqaruvga ega bo'lgan, davlat aralashuvi kamaytirilgan va ayni vaqtda uning nazoratidan butkul ozod etilmagan, boshqa hududlarida amal qilmaydigan imtiyoz va rag'batlantirishlar beriladigan hudud – erkin iqtisodiy hudud¹⁰. Shuningdek, yana bir olim Sh.I.Mustafaqulov erkin iqtisodiy hududlarni yaratish, ularga imtiyozlar taqdim etishda o'zgacha yondashuvni ochib bergan. Sh.I.Mustafaqulovning ta'kidlashicha, erkin iqtisodiy hudud – bu mamlakatning imidji ham. Erkin iqtisodiy

3 "O'zbekiston —2030 strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son

4 "O'zbekiston — 2030 strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son

5 Zhan, J. X., J. Karl. "Investment Incentives for Sustainable Development". In Tavares-Lehmann, 2016. <https://worldinvestmentforum.uncad.org/session/free-special-economic-zones-challenges-and-opportunities>

6 The Economic Times <https://economictimes.indiatimes.com/news/economy/policy/what-is-special-economiczone/articleshow/1164460.cms>

7 Shablinskiy I. G. Таможенные процедуры и логистика. Правовая поддержка, - М.: Alpina Publisher. 2007 г. - S.179. <https://cyberleninka.ru/article/v/osobyie-ekonomicheskie-zony-kak-instrument-antikrizisnoy-politiki>

8 Рыбаков S.A., Орлова N.A. Особые экономические зоны в России: Налоговые льготы и преимущества. - М.: Vershina, 2006. – S. 240.

9 Kuznetsov A. Свободные зоны и национальная экономика // Мировая экономика и международные. otnosheniya. – 1990. №12. – S. 24.

10 Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslar, hozirgi holati va istiqbollari. Monografiya –T.: Extremum-press. 2013. – 76-b.



hududlar, hatto, yomon faoliyat yuritgan taqdirda ham mamlakatni liberallashtirishga xizmat qiladi. Erkin iqtisodiy hudud qaysi mamlakatda, uning qaysi hududida yaratilmasin, u ijtimoiy loyihadir. Hududni yaratish nafaqat hudud uchun qo'shimcha daromad keltiradi, balki butun mamlakat uchun turli shaklda foydali qaytim beradi¹¹.

Bunday ta'riflardan ko'rinib turibdiki, olimlar tomonidan erkin iqtisodiy hududlarga tadbirkorlik subyektlari uchun "qulay biznes muhiti" sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda maxsus iqtisodiy zonalar yaratish va hududlar infrastrukturasini rivojlantirish borasidagi g'oyalar o'tgan asrning 80-yillar oxirida ko'rib chiqilgandi. O'sha vaqtning o'zida ko'pgina mutaxassislar bu hududlarni respublika iqtisodiyotini qayta isloh qilishning yangi mexanizmi va istiqboli deb sanashgandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotlar davomida ilmiy abstraksiya, analiz va dialektik, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishda iqtisodiyotning ochiqlik prinsipi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli erkin iqtisodiy zonalarini huquqiy maqomini ta'minlash iqtisodiyotning ochiqlik prinsipini ta'minlashda eng muhim shartlaridan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini jadallashtirish va kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2016-yil 26-oktabrdagi PF-4853-son Farmonida EIZga kiritiladigan quyidagicha investitsiyalar miqdoriga ko'ra soliq imtiyozlari qo'llaniladi:

- 300 ming AQSh dollaridan 3 mln AQSh dollarigacha investitsiya kiritilganda – 3 yil muddatga;
- 3 mln AQSh dollaridan 5 mln AQSh dollarigacha investitsiya kiritilganda – 5 yil muddatga;
- 5 mln AQSh dollaridan 10 mln AQSh dollarigacha investitsiya kiritilganda – 7 yil muddatga;
- 10 mln AQSh dollari va undan ortiq investitsiya kiritilganda – 10 yil muddatga, keyingi 5 yil mobaynida foyda solig'i va yagona soliq to'lovi stavkalari amaldagi stavkalardan 50 foiz past miqdorda qo'llanilgan holda beriladi.

Mamlakatimizda bu borada O'zbekiston Respublikasining "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi 2020-yil 17- fevraldagi 604-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2016-yil 26-oktabrdagi PF-4853-son hamda "Urgut", G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida" 2017-yil 12-yanvardagi PF-4931-son farmonida erkin iqtisodiy zona ishtirokchilariga quyidagi imtiyozlar taqdim etilishi belgilab qo'yilgan. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Erkin iqtisodiy zonalarida soliqlar va bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlarni qo'llash tartibini belgilaydi.

Erkin iqtisodiy zonalariga kiritiladigan investitsiyalar miqdoriga ko'ra EIZ ishtirokchilari quyidagi soliq turlarini to'lashdan ozod etiladi:

- Yer solig'i, foyda solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari umumta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy to'lovlar.

Bundan tashqari EIZ ishtirokchilari quyidagi bojxona to'lovlaridan ozod etiladi:

- o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelingan asbob-uskunalar, xomashyo, materiallar va butlovchi qismlar uchun bojxona to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari);
- respublikada ishlab chiqarilmaydigan va loyihalarni amalga oshirish doirasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha chetdan olib kelinadigan qurilish materiallari uchun bojxona to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) to'lashdan ozod etiladi.

EIZ ishtirokchisi tomonidan oldin berilgan imtiyozlar muddatidan uzoqroq muddatli imtiyozlar huquqi qo'llaniladigan hajmga yetuvchi investitsiyalar miqdori oshirilgan taqdirda, imtiyozlarni qo'llash muddati uzoqroq muddatga uzaytiriladi.

Bunda, agar investitsiyalar hajmi oldin berilgan imtiyozlar muddati tugaganidan keyin ko'paytirilsa, bojxona imtiyozlari uzoqroq muddatli imtiyozlar huquqini beruvchi miqdordagi investitsiya kiritilgan kundan, soliq imtiyozlari esa – uzoqroq muddatli imtiyozlar huquqi yuzaga kelgan oydan keyingi oyning 1-kunidan e'tiboran qo'llaniladi.


Imtiyozlarni qo'llash muddati imtiyozlar qo'llash boshlangan kundan e'tiboran hisoblanadi. Davlat bojxona xizmati organlari eksportga yo'naltiriladigan mahsulotlar bo'yicha xomashyo, asbob-uskunalar va butlovchi

11 Mustafaqulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: "Iqtisod-Moliya" 2017. – 56-6.



buyumlarni bojxona to'lovlaridan (bojxonada rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) ozod qilgan holda "erkin muomala" rejimida chiqaradi.

Berilgan soliq imtiyozlaridan foydalanish holati tahlili 2016-2018-yillar davomida O'zbekistondagi erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan umumiy qiymati 289444,9 mln. so'mni¹² tashkil etgan.



1-chizma: EIZlarda soliq imtiyozlaridan foydalanish holati tahlili

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shu o'rinda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonlar joylashgan hududidan kelib chiqqan holda ulardagi infrazuzilma tarmoqlari, yaratilgan qulay investitsiyaviy muhit, barpo etilgan sanoat tarmoqlari bo'yicha bir-biridan keskin farq qilishini inobatga olgan holda quyidagi xulosalar keltirildi.

Erkin iqtisodiy zonalarda uning ishtirokchilariga soliq va bojxona to'lovlaridan imtiyozlar taqdim etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etish bugunga kelib, preferensiya ko'rinishida emas balki, asosiy sharti sifatiga aylanib bormoqda. Sababi bu kabi imtiyozlar taqdim etish deyarli barcha mamlakatlar hududlarida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarda duch kelish mumkin. Shu sababli:

- yurtimizda maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etilishida ularda ishlab chiqariladigan yoki xizmat ko'rsatiladigan tovarlarning erkin almashinuvini ta'minlab beruvchi yo'l-transport infrastrukturasini yaratish;
- qo'shimcha qiymati yuqori mahsulotni ishlab chiqarishda xom-ashyolarni zaruriy hollarda klaster metodlarida o'zi mustaqil ishlab chiqarish sharoitlarini yaratish;
- maxsus iqtisodiy zonalariga salohiyatli kadrlarni jalb etish siyosatini xorij tajribasidan foydalanish takliflarini kiritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston–2030 strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini jadallashtirish va kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4853-son Farmoni. <https://lex.uz>
3. "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi 2017-yil 12-yanvardagi PF-4931-son Farmoni. <https://lex.uz>
5. Rustamovich, Dehkonov Burhan. "Quality And Safety Of Public Catering Services In Uzbekistan." (2023).
6. Xujamkulov D.Y. Erkin iqtisodiy hududlar. Darslik. –T.: IQTISODIYOT, 2019. – 408-b.
7. Karimqulov Jasur Imomboyevich, "Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari" Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan Dissertatsiya ishi.
8. Mustafaqulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2017. – 56-b.
9. www.stat.uz
10. www.president.uz

12 Karimqulov Jasur Imomboyevich "Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari" Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan Dissertatsiya

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.